



**YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING O'ZIGA
XOS JIHATLARI**

Алимова Гунчахон Бахадировна

Урганч Давлат Университети Мустақил таодқиқотчи

Телефон: +998 (99) 018 54 33 gb.alimova@inbox.uz

Annatatsiya: *Ushbu maqola Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining o'ziga xos jihatlari haqida.*

Kalit so'zlar: "Kelajak bunyodkori", Uchinci Renessans, yoshlar siyosati.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan marralarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasi bilan chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va u zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy normalar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi.

Alovida ta'kidlash joizki, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasi"da va uning mantiqiy davomi bo'lgan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ham bu masala alovida o'z aksini topgan. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

- jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalg qilish;
- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2016–2021 yillarda yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun va 55 ta qonunosti hujjati qabul qilindi. 2016 yilda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarga



oid davlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta'kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning tashabusini moliyalashtirish maqsadida 2018 yildan boshlab hududlarda 25 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi va 157 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksi faoliyat boshladи. "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida respublikaning tuman va shaharlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ'ib qilish va ro'yobga chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur g'oyani amalga oshirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida "5 tashabbus loyiha ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Tegishli loyihalar, jumladan, "Sport karvoni", "Bir million dasturchi", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yigit-qizlarni rag'batlantirish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. O'tgan vaqt davomida 113 nafar yosh "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan, 75 nafari esa "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlandi.

Ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Tizim tubdan isloh qilindi. Mazkur sohada yoshlar manfaatlarini ko'zlab ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi. Bularni quyidagicha turkumlashimiz mumkin:

Birinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari faoliyati tubdan yangilandi. O'tgan besh yil davomida kichik yoshdagи bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi ikki barobar ortib, 60 foizga etdi. Bugungi kunda bog'chalar soni 14 mingdan oshdi. Dars sifatini oshirish maqsadida boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan yosh o'qituvchilar oyligiga ustama haq to'lash tizimi joriy etildi.

Ikkinchidan, yoshlarning oliy ta'limga qamrovi oshirildi. 2016 yilda mamlakatimizda 65 ta oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2021 yilda respublikadagi jami oliy ta'lim tashkilotlari soni ikki barobardan ko'proqqa ortib, 127 taga etdi. Bugungi kunda esa 198 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat olib borib, umumiyl talabalar qamrovi 38 foizdan oshdi.

Uchinchidan, ta'lim tizimidagi davlat siyosati takomillashtirildi. Ta'lim sohasini tubdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun bilan yoshlarning uzlucksiz ta'lim olishini ta'minlash maqsadida kunduzgi ta'lim shakli bilan bir qatorda sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakllari joriy etildi. Dual ta'lim yo'lga qo'yildi.

To'rtinchidan, yoshlarning bilim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlarini Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, ta'lim kreditining asosiy qismi talaba oliy ta'lim tashkilotini tugatgandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarishi belgilandi. Bunda "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga



kirgan oilalar farzandlaridan ta'lim krediti uchun garov va kafilliklar talab etilmasligi alohida belgildi.

Beshinchidan, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarimizni nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish va ilmiytadqiqot faoliyatini olib borishini ta'minlash maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi tuzilib, xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada o'qish uchun stipendiyalar ajratildi. 2018-2020 yillarda mazkur jamg'arma tomonidan 54 nafari xorijga magistraturaga, 42 nafari doktoranturaga, 191 nafari stajirovkaga, 698 nafari esa malaka oshirishga yuborilgan. 2021 yilda jamg'arma tomonidan bakalavriatga 69 ta, magistraturaga 112 ta, doktoranturaga 91 ta o'rinni ajratilgan. Dunyoning eng nufuzli universitet va ilmiy markazlarida ta'lim olgan, innovatsion kompaniyalarida stajirovka o'tagan yetuk bilim va malakaga ega bo'lgan, o'z Vatani ravnaqi yo'lida tinimsiz mehnat qilishga tayyor kadrlarni xorijda tayyorlash albatta mamlakat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlarni internetdagagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etilmoqda. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo'yicha innovatsion ko'nikmalar shakllantiriladi, "startap" loyihalarga yordam ko'rsatiladi. Shuningdek, 2021 yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasidagi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Yangi tashkil etiladigan kompyuter o'yinlari markazlari yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bilan ta'minlanadi.

Yoshlarda kitobxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida, yangi tashabbus doirasida Qoraqalpog'iston Pespublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxdan kam bo'limgan miqdorda kitoblar etkazib berildi. Shu barobarida, har bir shahar va tuman markazida namunali kitob do'konlari tashkil etilib, ko'chma kitob pavilonlari joylashtirildi va "Bibliobus"lar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda.

Umuman, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, etuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni hap tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yillar davomida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni komil inson sifatida jamiyatga kirishi uchun zamin yaratildi. Yoshlarga berilayotgan bu e'tibor, oxir-oqibat, o'z mevasini bermoqda. Bunga yoshlarimiz xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir. Mazkur islohotlarning samarasi o'laroq kelajagimiz bunday yoshlar qo'lida porloq bo'lishiga hech qanday shubha yo'q. Chunki



aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O'zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi // <https://aza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

2) O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/3026246>

3) O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi// <https://yoshlar.gov.uz/uz/about-agency/>

4) Письмо Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана. 20 декабря 2022 г.// <https://president.uz/ru/lists/view/5774>